



UDK: 801.82:81.192

Nilufar BOBOQULOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: boboqulovanilufar237@gmail.com

Termiz davlat pedagogika instituti "Amaliy ingliz tili" kafedrası mudiri N.Madalov taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SOMATIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING SEMANTIK VA KONSEPTUAL FARQLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida somatik komponentlar ishtirokida shakllangan maqollarning semantik va konseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bosh, ko'z, burun, tish kabi tana a'zolari nomlari asosida yaratilgan paremiologik birliklar misolida ularning mazmuniy farqlari va madaniy konnotatsiyalari ko'rsatib berilgan. O'zbek tilidagi maqollarda somatik birliklar ko'proq oilaviy munosabatlar, ijtimoiy qadriyatlar va yetakchilik bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida ular shaxsiy tajriba, psixologik holat va ehtiyotkorlikni ifodalashda keng qo'llanadi. Maqolada mazkur somatik komponentlarning konseptual asoslari ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Somatik komponent, maqol, paremiologiya, semantika, konsept, ingliz tili, o'zbek tili, madaniy qadriyatlar.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ПОСЛОВИЦ С СОМАТИЧЕСКИМИ КОМПОНЕНТАМИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье анализируются семантические и концептуальные особенности пословиц, сформированных с использованием соматических компонентов в английском и узбекском языках. На примере паремнологических единиц, созданных на основе названий частей тела – таких как голова, глаза, нос и зубы – выявляются их семантические различия и культурные коннотации. В узбекских пословицах соматические элементы чаще ассоциируются с семейными отношениями, социальными ценностями и лидерством, тогда как в английских пословицах они широко используются для выражения личного опыта, психоэмоционального состояния и осторожности. В статье также раскрываются концептуальные основы данных соматических компонентов.

Ключевые слова: Соматический компонент, пословица, паремнология, семантика, концепт, английский язык, узбекский язык, культурные ценности.

SEMANTIC AND CONCEPTUAL DIFFERENTIATION OF PROVERBS WITH SOMATIC COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the semantic and conceptual features of proverbs formed with somatic components in English and Uzbek languages. The study demonstrates, through examples of paremiological units created on the basis of body parts such as head, eyes, nose, and teeth, their semantic differences and cultural connotations. In Uzbek proverbs, somatic units are more often associated with family relations, social values, and leadership, whereas in English they are widely used to express personal experience, psychological states, and caution. The article also reveals the conceptual foundations of these somatic components.

Key words: Somatic component, proverb, paremiology, semantics, concept, English language, Uzbek language, cultural values.

Kirish. Har bir xalqning maqollari uning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlarini ifodalovchi bebaho til birliklaridir. Xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida maqollar jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiradi. Tilshunoslikda so'nggi yillarda paremiologiya – maqollar va matallarni o'rganuvchi yo'nalish keng rivojlanmoqda. Shu jumladan, maqollarda uchraydigan somatik komponentlar (bosh, ko'z, burun, tish va boshqalar) ularning ma'nosini boyitadi, ramziy va metaforik tus beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda somatik komponentlarning qo'llanishi umumiyliklarga ega bo'lsa-da, ularning semantik va konseptual mazmunida muayyan farqlar kuzatiladi. Bu farqlar har ikki xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini namoyon qiladi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi somatik komponentli maqollar qiyosiy tahlil qilinib, ularning semantik hamda konseptual tafovutlari yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Konsept" va "tushuncha" bir-biriga to'liq teng ma'noli emas. "Konsept" tushunchaga nisbatan ancha keng qamrovli bo'lib, u umumiylik sifatida qismidan hajman ortiqdir. Bu fikrni P.Abelard, M.Pimenova, I.Sternin, V.Karasik, G.Slyshkin, L.Cherneyko, V.Maslova va boshqa olimlarning izlanishlarida kuzatish mumkin. Konsept va g'oya orasidagi "butun" va "qism" munosabati haqidagi qarashlarni konseptualizm asoschisi Per Abelard (1079–1142)ning asarlarida ham topish mumkin. U konseptning ifoda doirasi turfa shakllarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi: unda sezgi, emotsiya, affekt, his-tuyg'ular va shunga o'xshash jihatlar mujassamdir. Agar tushuncha muayyan predmet yoki hodisani anglashga qaratilgan fikr bo'lsa, konsept esa predmetning ichki tomonlarini yorituvchi, ko'pincha ikkinchi darajali bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiy tasavvur va kechinmalarni o'zida aks ettiradi. Boshqacha aytganda, konsept nafaqat mavhum tafakkurni, balki obrazlar, belgilar, hissiyotlar va baholashlarni

ham qamrab oladi. Shuning uchun ham g'oya abstraktlikdan tashqari, aniq-assotsiativ hamda hissiy-baholash qirralarini o'z ichiga oladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz va o'zbek tillarida somatik komponentli maqollarning semantik va konseptual farqlanishi masalasiga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning chog'ishtirma tahlil, analiz, sintez kabi metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Somatik komponentli maqollar – bu tarkibida tana a'zolari nomi (bosh, ko'z, quloq, burun, tish, qo'l, oyoq va boshqalar) ishtirok etuvchi hikmatli iboralaridir. Bunday maqollar nafaqat biologik, balki ramziy, majoziy va madaniy ma'nolarni ifodalaydi. Ular inson hayoti, xarakteri, ijtimoiy mavqei hamda axloqiy qadriyatlarini anglashda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbek va ingliz tillarida somatik komponentlarga asoslangan maqollar inson hayoti, xarakteri va ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq ma'nolarni ifoda etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Somatik birliklar – bosh, ko'z, burun, tish, qo'l, oyoq kabi tana a'zolari nomlari maqollarda ko'pincha ramziy ma'noda ishlatiladi. O'zbek tilida, somatik komponentlar ko'proq ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar va axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashadi. Masalan, “Er – bosh, xotin – bo'yin” maqolida bosh – rahbarlik va mas'uliyat timsoli sifatida, bo'yin esa ergashuv va qo'llab-quvvatlash ramzi sifatida talqin etiladi. Xuddi shuningdek, ko'z ruhiy holat, samimiyluk va sevgi belgisi bo'lib xizmat qiladi: “Ko'z – qalb ko'zgusi”.

Ingliz tilida esa somatik komponentli maqollar ko'proq umumiy insoniy tajriba, psixologik holatlar va ehtiyotkorlikni targ'ib qiladi. Masalan, “The eyes are the window of the soul” maqolida ko'z – insonning ichki dunyosini ochuvchi ramz sifatida talqin etiladi. Yoki “Don't cut off your nose to spite your face” maqoli insonni g'azab yoki qasos oqibatida o'ziga zarar yetkazmaslikka undaydi. Semantik farq shundaki, o'zbek maqollarida somatik komponentlar ko'pincha ijtimoiy va oilaviy munosabatlarda yetakchilik, birdamlik va axloqiy qadriyatlarini ifodalasa, ingliz maqollarida ular individual tajriba, hissiyotlar va ehtiyotkorlikni ifodalashda ko'proq qo'llaniladi. Konseptual jihatdan, o'zbek tilidagi maqollar jamoaviylik va ijtimoiy tuzumni, ingliz maqollari esa shaxsiy tajriba va individual qadriyatlarini yoritadi. Natijada, somatik komponentlarning ishlatilishi har ikki tilda ham insoniy tajribani ifodalashda umumiylikka ega bo'lsa-da, mazmuniy yo'nalishi va konseptual asoslari farqlanadi [6].

Somatik komponentli maqollarda “bosh” so'zi odatda insonning yetakchilik fazilatlarini, boshqaruv qobiliyatini va oiladagi o'rni bilan bog'liq. Masalan: “Er – bosh, xotin – bo'yin”; “Xotin olsang, saylab ol, jilovini boshdan ol”; “Bosh bo'lmagan uyda, otasi turib o'g'li so'zlar”. Ushbu misollarda erkak shaxs oilaning tayananch kuchi, boshqaruvchi va yetakchisi sifatida talqin etiladi.

“Ko'z” komponenti ishtirok etgan maqollarda bu so'z ko'pincha metaforik yoki metonimik ma'noda qo'llaniladi. Ko'z inson qalbining ko'zgusi sifatida uning ichki ruhiy holatini, sevgi va samimiylukni ifodalaydi: “Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmasa”; “Ko'zdan nari – ko'ngildan nari”; “Ko'z ko'rganini qilar, Kosov – tutganini”. Shu ma'noda, ko'z insonning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va samimiyligini aks ettiruvchi ramz sifatida qaraladi. Ingliz tilida ham shunga yaqin maqollar mavjud: “The eyes are the mirror of the soul”; “The eyes are the window of the soul”. Bular insonning ko'zlari orqali uning haqiqiy niyat va kechinmalarini anglash mumkinligini bildiradi [1].

“Burun” somatizmi o'zbek maqollarida ko'proq salbiy his-tuyg'ular yoki illatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: “O'rtada burun bo'lmasa, ko'z-ko'zni o'yar” – bunda “burun” mas'uliyatli inson yoki boshliq timsolida,

“ko'z-ko'z” esa oddiy odamlar yoki hodimlar sifatida talqin qilinadi. Yana bir misol: “Mol boqsang, og'zi-burning moy, bo'ri boqsang, og'zi-burning loy”. Ingliz tilida esa “burun” ishtirokidagi mashhur maqollardan biri: “Don't cut off your nose to spite your face” bo'lib, bu g'azab yoki qasos istagi odamning o'ziga zarar keltirishi mumkinligini bildiradi. O'zbek tilidagi “Achchig'ing kelsa, burningni tishla” maqoli bilan ma'nodosh bo'lib, u ham hissiyotlarga berilmaslikka undaydi [4].

Ingliz tilidagi boshqa maqollar orasida “tish” va boshqa tana a'zolari orqali ramziy ma'no beruvchi misollar ham bor. Masalan, “The wolf loses its teeth but not its ways” – bunda tashqi o'zgarishlarga qaramay, mavjudotning asl xususiyatlari o'zgarishsiz qolishini anglatadi. Yoki “Trust neither a cow's horn, a dog's tooth, nor a horse's hoof” maqoli insonni ehtiyotkorlikka chaqiradi: tashqi tomondan zararsiz ko'ringan narsalar ham zarar yetkazishi mumkin. Majoziy jihatdan bu odamlar yoki vaziyatlarning haqiqiy qiyofasini anglash qiyin bo'lishini, shuning uchun ishonchga shoshilmaslik lozimligini bildiradi [3].

Ingliz tilida somatik komponentli maqollar ko'proq individual tajriba, psixologik holat va ehtiyotkorlikni ifodalaydi: “The eyes are the window of the soul” – ko'z insonning ichki dunyosini ochuvchi ramz; “Don't cut off your nose to spite your face” – g'azabda o'ziga zarar yetkazmaslikka undaydi; “Many hands make light work” – hamkorlik mehnatni yengillashtiradi; “To stand on your own two feet” – mustaqillik va o'ziga tayanish timsoli; “The wolf loses its teeth but not its ways” – inson tabiati o'zgarmasligini bildiradi. Bu maqollarda hand, eye, nose, foot kabi somatik birliklar orqali insonning shaxsiy tajribasi, ehtiyotkorlik va mustaqil fikrlashga urg'u beriladi. O'zbek maqollarida somatik birliklar ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini ifodalasa, ingliz maqollarida ular individual psixologik tajriba va hayotiy ehtiyotkorlikni yoritadi. O'zbek madaniyatida “bosh”, “qo'l”, “oyoq” kabi komponentlar jamoaviylik va birdamlik bilan bog'liq; Ingliz madaniyatida esa “eye”, “nose”, “hand” komponentlari shaxsiy tajriba, kuzatuvchanlik va o'zini nazorat qilish ramzidir. Shunday qilib, somatik komponentlar har ikki madaniyatda inson tabiatining umumiylikni, biroq madaniy qadriyatlarining farqliligini ifodalash vositasidir. Ingliz tilida esa “hand” so'zi ham shunga yaqin, ammo ko'proq individual tajriba va amaliy faoliyat bilan bog'liq: “Many hands make light work” – jamoaviy mehnat ishni yengillashtiradi. “A bird in the hand is worth two in the bush” – mavjud narsani qadrlash, ortiqcha orzu bilan mavjud imkoniyatni boy bermaslik g'oyasini ifodalaydi. “Wash your hands of something” – mas'uliyatdan qochish yoki bir ish bilan aloqani uzish ma'nosini bildiradi. O'zbek madaniyatida inson jamiyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shaxsning qadri uning oiladagi mehnat jamoasidagi o'rniga bog'liq. Shu bois “bosh”, “qo'l”, “oyoq” kabi komponentlar jamoaviylik, rahbarlik va yordam ramzlari sifatida qo'llaniladi: “Bosh bir bo'lsa, et bir bo'ladi” – birlik va hamjihatlikni ulug'laydi; “Qo'l ko'p bo'lsa, osh totli bo'lur” – jamoaviylikni, birgalikdagi mehnatni qadrlaydi. Ingliz madaniyatida esa inson shaxsiy mustaqillikka, individual muvaffaqiyatga intiladi. Shuning uchun bu tildagi maqollar ko'proq shaxsiy mas'uliyat, ehtiyotkorlik va o'zini nazorat qilish g'oyalarini ilgari suradi: “Keep your head above water” – og'ir vaziyatda o'zingni saqlab qolish; “To stand on your own two feet” – o'z kuchingga tayanish, mustaqil hayot kechirish. Demak, har ikki xalq tafakkurida somatik komponentlar orqali insonning jamiyatdagi o'rni ifodalanadi, biroq bu o'rinning mohiyati turlicha – o'zbeklarda jamoaviylik, inglizlarda individuallik ustuvorlik qiladi [2].

O'zbek va ingliz maqollaridagi somatik komponentlar qiyosiy tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatadi. Semantik jihatdan, har ikkala tilda tana a'zolari nomi orqali insonning

ichki holati, xulqi va ijtimoiy mavqei ifodalanadi. O'zbek tilida: bosh – rahbarlik, ko'z – samimiylik, qo'l – yordam, oyoq – hayot yo'li. Ingliz tilida: head – aql, eye – idrok, hand – faoliyat, foot – mustaqillik. Konseptual darajada, o'zbek maqollarida jamiyatga moslashish va birgalikdagi hayot qadrlansa, ingliz maqollarida shaxsiy mas'uliyat va mustaqil qaror qabul qilishga urg'u beriladi. Pragmatik jihatdan, somatik komponentlar turli vaziyatlarda didaktik, ogohlantiruvchi yoki o'git beruvchi ma'noga ega. Masalan, o'zbek tilida "Ko'zdan nari – ko'ngildan nari" maqoli befarqlikni bildirsa, ingliz tilidagi "Out of sight, out of mind" maqoli mazmun jihatdan aynan mos keladi. Bu esa madaniyatlararo tafakkurda o'xshash konseptlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Metaforik modellash jihatidan,

somatik komponentlar orqali tilning obrazlilik darajasi yuqori bo'lib, ular xalq tafakkurining ramziy ifodasini tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek maqollarida somatik komponentlarning qo'llanishi insonning ichki kechinmalari, xatti-harakati va jamiyatdagi o'rnini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek maqollarida bu komponentlar ko'proq ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar va yetakchilik bilan bog'liq bo'lsa, ingliz maqollarida shaxsiy tajriba, ehtiyotkorlik va hissiy dunyo aks etadi. Demak, somatik komponentli maqollar har ikki til uchun umumiy ramziy vosita sifatida xizmat qilsa-da, ularning semantik yo'nalishi va konseptual asoslari milliy tafakkur va madaniyatga xos jihatlari bilan farqlanadi. Bu esa paremiologik tadqiqotlarda qiyosiy yondashuvning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Kholboyeva I. Contrastive Analysis Of Proverbs With Somatic Components In English And Uzbek Languages. The Peerian Journal, vol. 39, 2025.
2. Исаев А. О соматической фразеологии узбекского языка//Актуальные проблемы фразеологии. – Самарканд, 1971. – Вып.2. – С. 39-41.
3. Uralova O.P. Ingliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoreferati. – Samarqand: 2020. – 58 b.
4. Wardhaugh R. Investigating Language. Central Problems in Linguistics. – Oxford: Blackwell, 1994. – 292 p.
5. Yusupov O'. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. – Toshkent: Akademyashr, 2011. – 37 b.
6. Yusupov U. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – Toshkent: Akademyashr, 2013. – 282 b.
7. Вакк Ф.О. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Таллин: 1964. – 22 с.
8. Городецкая И.Е. Фразеологизмы-соматизмы в русском и французском языках. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск: 2007. – 23 с.